

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## TALABALARING KASBIY KO'NIKMALARINI VOLEYBOL VOSITALARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

*Arabov Erkin Oltiyevich*

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti  
“Matematika, jismoniy tarbiya va sport kafedrasi” o‘qituvchisi  
e-mail: [e.arabov72@gmail.com](mailto:e.arabov72@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta’lim talabalarida voleybol vositalari yordamida kasbiy ko’nikmalarini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama sog‘lom, barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yangisha yondashuv asosida ta’lim berish yo‘llari bilan bir qatorda pedagogik faoliyatda yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanish yo‘llari ham ko‘rsatilagan.

**Kalit so‘zlar:** voleybol, jismoniy tarbiya, ta’lim, tarbiya, barkamol avlod, ma’naviy-axloqiy tarbiya, voleybol, kasbiy ko’nikmalar, shaxsiy sifatlar.

**Kirish.** Hozirda Voleybol sport turi rivojlangan davlatlarda musobaqa hamda mashg‘ulot jarayonida vositalarni tabaqalashtirish, funksional zahira imkoniyatlarini boshqarishga qaratilgan organizmni tiklovchi texnologiyalar ishlab chiqish, texnik va taktik imkoniyatlari oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yetuk mutaxassis olimlarning ta’kidlashicha, sport mahoratini oshirish fanidan “Voleybol” materialini o‘qitishga korreksion yondashuv bo‘yicha pedagogik ko’nikmalar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun ushbu sport turi vositalaridan foydalanish istiqbollari bugungi kungacha yetarlicha o‘rganilmagan.

**Maqsad va vazifalar.** Voleybol sport turi – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va ko‘p qirrali vositasidir. Voleybol bilan shug‘ullanish organizmning bir qator tizimlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga ko‘ra voleybol ko‘plab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli o‘ringa ega. Voleybol sport hamda umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlarining jismoniy madaniyat fani dasturlariga kiritilgan. Jismoniy madaniyat jamoalari sport seksiyalari va harbiy bo‘linmalarda voleybol bilan shug‘ullanishadi. Voleybol bog‘larda, cho‘milish joylarida, dam olish uylarida, ko‘plab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qo‘llaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bag‘ishlaydi [1; 14-16-b., 2; 4-7-b., 6; 65-b.].

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda: ularning o‘quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko‘nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to‘liq yoritilmagan.

**Tadqiqot usullari va tashkil etilishi.** Biz o‘tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, psixofizalogik usullar, hujjatlari materiallar tahlil qilish, savol-javob va so‘rovnama, matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyligi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi empirik ma’lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishslashning umume’tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish.** Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida sportga nisbatan qiziqish va qadriyatlar, ularning o‘zgarishi xususiyati natijalari bayon qilingan, jismoniy tarbiya sohasida oliy ma’lumotiga ega mutaxassislarning kasbiy faoliyati moxiyatini kompleks holda aks ettiruvchi eng muhim sifatlarning bat afsil tavsifi berilgan, sport ixtisosligining jismoniy tarbiya pedagogining kasbiy ko‘nikmalar shakllanishiga ta’sir etish daroji aniqlangan, voleybol vositalari orqali samarali shakllantiriladigan shaxsiy sifatlar va qobiliyatlar ro‘yxati aniqlangan, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining jismoniy madaniyat fakultet talabalariga “Sport maxoratini oshirish” o‘quv fanini o‘qitishda vositalar xamda tashkiliy-uslubiy usullar tizimi ishlab chiqilgan hamda taqdim etilgan.

Voleybol vositalari yordamida talabalarning jismoniy sifatlarini variativ tizimi asosida takomillashtirish mexanizmi 5 blokdan iborat. Bloklarda talabalarnining jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, ularning qo‘llanilish uslubiyati, vazifalari, ta’sir yo‘nalishi hamda nomoyon bo‘lish shakillari yoritib berilgan. [6; 65-b.]

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrmulohazalarni tahlil qilib, bu kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beruvchi usullarni topish mumkin. Sport ixtisosligining jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalarini

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

shakllanishiga ta'sir etish darajasi to‘g‘risida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar fikr-mulohazalari tahlili shuni aniqlab berdiki, sport o‘yinlarida ko‘proq shakllanadigan kasbiyko‘nikmalar va qobilyatlar sifatida g‘alabaga bo‘lgan iroda (2,81 b.), qat’iyatlilik (2,76 b.), o‘zini nazorat qilish (2,73 b.), faollik, stresslarga bardoshlilik, chidamlilik, jur’at, mehnatsevarlik va bir zumda ko‘rish reaksiyasi qayd etilgan.

Gimnastika sport turlarida 100% respondetlar birinchi o‘ringa ishga bo‘lgan ijodiy yondashuv (3,00 b.) qo‘yilgan, keyin ma’suliyat (2,93 b.) va mehnatsevarlik (2,83 b) qayd etilgan. Yakkakurash ixtisosligiga ega respondentlar g‘alabaga bo‘lgan iroda (2,81 b.), burch hissi, muloqatchanlik va faollikni, tezlik-kuch sport turlari vakillariga esa mehnatsevarlik (3,00 b.), g‘alabaga bo‘lgan iroda (2,82 b.) va bardoshlilik (2,78 b.) ajratib ko‘rsatilgan. Aniqlanishicha, boshqa sport turlariga nisbatan (1-jadvalga qarang). sport o‘yinlari bilan shug‘ullanadigan ko‘proq pedagogik ko‘nikmalar (2,65 b.), irodaviy (2,81 b.), intellektual (2,55 b.) va psixofiziologik ko‘nikmalar (2,83 b.) rivojlanar ekan.

### 1-jadval.

#### Sport ixtisosligining kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlarning shakllanishiga ta’siri darajasi (ball)

№	Kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar	Sport o‘yinlari		Yakkakurash		Tezlik-kuch sport turlari		Gimnastika	
		X̄	o‘rin	X̄	o‘rin	X̄	o‘rin	X̄	o‘rin
1.	Irodaviylik	2,81	2	2,84	1	2,66	3	2,32	4
2.	Psixofiziologik	2,83	1	2,40	2	2,11	4	2,38	3
3.	Ishga bo‘lgan munosabat	2,68	2	2,55	3	2,31	4	3,00	1
4.	Pedagogik	2,65	1	2,14	3	2,13	4	2,51	2
5.	Intellektual	2,55	1	2,35	2	2,25	4	2,30	3
6.	Axloqiy	2,48	2	2,79	1	2,39	4	2,44	3
7.	Jamoada o‘zini tutish	2,42	1	2,32	3	2,24	4	2,36	2
8.	Shaxsiy	2,22	4	2,32	3	2,42	2	2,65	1

Olingan natijalardan kelib chiqib, voleybol vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalar hamda qobiliyatlarni hosil qilish va shakllantirish masalalarini o‘rganish uchun quyidagilarni tanlab oldik: pedagogik ko‘nikmalar ular orasida voleybolni o‘qitish davomida o‘z rivojini taqozo etuvchi va har xil shug‘ullanuvchining ushbu sport turida muvoffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga asoslanuvchi qobilyat hisoblanishi oldindan ko‘ra bilish va bashoratlash: intellektual sifatlar, bu yerda asosiy e’tiborni oldindan ko‘ra bilish hamda bashoratlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan intuitsiya va tasavurga qaratamiz; irodaviy sifatlar, ular orasida g‘alabaga bo‘lgan iroda, tirishqoqlik, o‘zini nazorat qilishni ajratamiz, zero ular ko‘proq ball to‘plagan.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Voleybol mashg'ulotlarining aniq kasbiy ko'nikmalarini xosil qilish imkoniyatlarini tekshirish voleybolni o'qitishga bo'lgan yangi yondashuvlarni qo'llash zaruratini belgilab beradi. O'qitish shartlari, birinchidan, umuman talabalar sporti xususiyatlari, ikkichidan, talabalarning bo'lajak kasbipedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi.

**Xulosa.** Pedagogika oliv o'quv yurtlari jismoniy tarbiya kafedralarining yetakchi o'qituvchilarini orasida o'tkazilgan anketa so'rovi oliv jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega mutaxassilarning kasbiy faoliyatini mohiyatini kompleks holda aks ettiruvchi eng muhim ko'nikmalarni, shuningdek, sport ixtisosligining jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy ko'nikmalari shakllanishiga ta'sir etish darajasini aniqlash imkonini berdi. Sport o'yinlarida ko'prok shakllanadigan kasbiy ko'nikma va qobiliyatlar sifatida g'alabaga bo'lgan iroda (2,81 b.), qat'iyatlilik (2,76 b.), o'zini nazorat qilish (2,73 b.), stresslarga bardoshli, chidamklorlik, jur'at, mehnatsevarlik va bir zumda ko'rish reaksiyasi qayd etildi. Gimnastika sport turlarida 100% respondentlar birinchi o'ringa ishga bo'lgan ijodiy yondashuv (3,00 b.) qo'yilgan, keyin ma'suliyat (2,93 b.) va mehnatsevarlik (2,83 b.) qayd etilgan. Yakkakurash ixtisosligiga ega respondentlar g'alabaga bo'lgan iroda (2,81 b.), burch hissi, muloqotga kirishuvchanlik faollik, tezlik-kuch sport turlari vakillariga ega mehnatsevarlik (3,00 b.), g'alabaga bo'lgan ishonch (2,82 b.) va bardoshlilik (2,78 b.) ajratib ko'rsatilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 14-16-b.
2. Boltayev Z.B. – "Voleybol nazariyasi va uslubiyati" – Darslik. Samarqand – 2019., 4-7-b.
3. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
4. Араббоев, К. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.
5. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE"

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

6. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.

7. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.

8. Toxirjonovich, Arabboev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

9. Arabboev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboev." Научно-практическая конференция. 2022.

10. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.

11. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.

12. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.

13. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.

14. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

15. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
16. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.
17. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.
18. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
19. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
20. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
21. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
22. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
23. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.